

**“ORGANIK DEHQOCHILIKNING AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI” MAVZUSINI O‘QITISH JARAYONIDA
TALABALARING FAOLLIGINI OSHIRISH**

Soliyeva Fotima Farhod qizi, G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Organik dehqonchilik bilan tanishish va uning ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lish jarayonida e’tiborga molik jihatlar, turli metodlarning ta’lim sifatiga ta’siri va dars jarayonida muammoli vaziyat yaratish, evristik suhbat hamda mustaqil ta’lim orqali talabalarining faolligini oshirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oragnik dehqonchilik, talabalar faolligi, mevalar, anor (*Punica granatum L.*), “FSMU ” metodi, fikr, sabab, misol, umumiy xulosa

Bugungi kunda yoshlarni barkomol qilib ulg‘aytirish, el-yurt uchun nafi tegadigan farzand qilib tarbiyalash nafaqat ota-onaning, balki butun bir xalqning asosiy vazifasi deb aytsak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, bizning kelajagimiz yosh hamda navqiron, ko‘zi chaqmoqdek yonib turgan yoshlar qo‘lida. Xususan, bugungi kunda olib borilayotgan yangi islohotlar, qabul qilinayotgan qaror va qonunlar, farmoyishlarning barchasi yangi yosh avlod uchundir. Bilasizmi, oddiygina yil nomlariga nazar soladigan bo‘lsak, 2008-yil “ Yoshlar yili”, 2010-yil “Barkamol avlod yili”, 2014-yil “Sog‘lom bola yili”, 2016-yili “Sog‘lom ona va bola yili” deb nomlanganligi ham ysohlar uchun ajoyib imkoniyatlar eshigini ochish uchun xizmat qildi. Mayli ortga nazar solmasdan hozirgi vaqtga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yil 24-oktabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev saylangan so‘ng, kelgusi besh yilga, ya’ni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi tastiqlandi. Bu ham biz uchun keng ma’nodagi imkoniyatlar demakdir.

Bilamizki, bundan tashqari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va yoshlarga oid “Davlat dasturi” ni ijrosini ta’minalash, shu asosda ta’lim sifatini va samaradorligini yaxshilash, ya’ni iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan zamonaviy o‘qitish usullari – uslublar talabalarning yangi bilimlarini ongli va chuqur o‘zlashtirishlariga, ularda faollik va ijodkorlikka katta ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini rivojlanishida “Dehqonchilik” fanining ahamiyati katta ekanligi hammaga ma’lum. Lekin, bu fanning o‘zlashtirish birmuncha qiyinligi va qiziqarligi sababli, dars jarayonida talabalar faolligini oshirish zarurdir. Talabalarning dars jarayonida yangi mavzuni ahamiyatini ongli tushunib olishlari, faqat o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlari asosidagina vujudga kelmay, balki buning uchun o‘qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan talabalarning bevosita faoliyatida ham vujudga keladi. Shuning uchun o‘qitish jarayonining samaradorligini hamda sifatini oshirish, muammolarini aniqlash va ularga yechm topish uchun keng ko‘lamdagi ilmiy pedagogik usullarda dasr o‘tishga bog‘liq sanaladi. Buning uchun dars jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratishimiz lozim.

Muammoli vaziyat. Biz yangi maqsadlar hamda shu bilan birga yangi loyihalar ustida ishlamoqchi bo‘lsak avvaliga muammo nimada ekanligini bilib olishimiz zarur. Muammoga yechim izlamoq va muammoni yechmoq esa bizga yangi tarkibdagi yangi loyihalar uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari muammoli vaziyatlarda o‘qituvchi talaba yoshlarni muammo hal qilishga, yangi yechim izlashga, mantiqan o‘ylashga va shu bilan bir qatorda izlanishga hamda to‘g‘ri xulosa qilishga undaydi. Muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida talabalarning fikrlash qobiliyati yanada ortib boradi. Masalan, o‘qituvchi “Organik dehqonchilik” ni qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini tushuntirishda talabalarga organik dehqonchilik nima ekanligi, ularni rivojlantirish istiqbollari qanaqa ekanligi so‘raydi va ulardan erkin fikrini so‘raydi. Bunda talabalar organik dehqonchilikning ahamiyatini, ularga nimalar kirishini , organik mahsulotlar qaysi ekanligi, ularning insonlar uchun foydasini qanday ekanligini o‘rganadi, izlanadi, kuzatadi. Kuzatilayotgan jarayonlaridan, izlanish natijalar muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bunda

o‘qituvchi talabalarga yangi hodisani, ya’ni organik dehqonchilik rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilib, tushuntirib beradi.

Evrestik suhbat. Talabalar fikrlashining o‘sishi – suhbatni tashkil etadigan o‘qituvchi savollarining xarakteriga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Suhbat davomida, talabalardan ilgari suriladigan ilmiy holatlarni asoslash, isbot qilish, xulosalarni mustaqil ifodalab berish talab qilinadi. Taqdimot, darslik va internetdan to‘g‘ri foydalanish, olingan ma’lumotlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilishga undaydi. Talabalarning darslik bilan ishlashlarini samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuni oxirida keltirilgan o‘z-o‘zini tekshirish uchun nazariy savollari, masalalar va testlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Talabalarni uy ishlarini bajarishga o‘rgatish bilan birga, savollarga og‘zaki javob berishga o‘rgatish, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga olib keladi. Savollar shunday tuzilganki, organik dehqonchilikni, ularning ahamiyatini , darslik matnidan ma’lum savollarga javob topishni o‘rganishga va olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Darslikda mavzuga bog‘liq bo‘lgan masala va mashqlar, rasmlar hamda laboratoriya ishlari keltiriladi. Bu materiallardan imkonи boricha to‘laroq foydalanish tavsiya etiladi. Olgan bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘sishimcha o‘quv, ilmiy-ommabop va internetdan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mustaqil ta’lim. Mustaqil ta’lim har sohada, xususan dehqonchilikda ham juda muhim hisoblanadi. Chunki mustaqil o‘zi izlanib olayotgan bilimlar xotirada kuchli iz qoldirib, har takrorlaganda yanada bilimlar mustahkamlanadi. Dars yakunida talabalar o‘tilgan materialni qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish uchun savol-javoblar, test sinovlari va mustaqil ta’limdan foydalanish kerak bo‘ladi. Bunday usullar bilan talabalarni bilimlarini kengaytirish, masalalar yechimini topishga, mustaqil ishlashlari va xulosalar qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
- 2.“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5995-son farmoni.